SOYANING MA’NOSI: O‘ZLIKNI ANGLASH MUAMMOSI (Ahmad A’zamning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi misolida)

Ma’rufat Qodirova Abdullayevna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining assistenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
marifatqodirova45@gmail.com
https:// orcid.org/ ORCID: 0009-0005-6484-280X

Abruyeva Madina Uchqunjon qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining 2-kurs talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19724840

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ahmad A’zamning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasining badiiy-falsafiy mohiyati, undagi ramziy obrazlar va qahramon ruhiyatidagi evrilishlar tahlil qilinadi. Muallif hikoyada “soya” timsoli orqali insonning o‘zligidan begonalashishi, ma’naviy inqirozi va jamiyatdagi qiyofasini yo‘qotish fojiasini qanday yoritib bergani tadqiq etilgan. Maqolada asarning psixologik tasvir mahorati hamda zamonaviy o‘zbek nasridagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, qahramonning ichki kechinmalari orqali insoniyatning umuminsoniy qadriyatlarni asrash masalasi o‘rtaga tashlanadi.*

Kalit so‘zlar: *soya, hikoya, psixologizm, qahramon, xarakter, uslub.*

Аннотация. *В статье анализируется художественно-философская природа повести Ахмада Азама “Человек, потерявший свою тень”, ее символические образы и эволюция психики героя. В повести автор исследовал трагедию человеческого отчуждения, духовного кризиса и утраты имиджа в обществе через образ “тени”. В статье научно обоснована психологическая образность произведения и его место в современной узбекской прозе. Также через внутренние переживания героя на первый план выдвигается вопрос сохранения общечеловеческих ценностей.*

Ключевые слова*: тень, рассказ, психология, герой, персонаж, стиль.*

Abstract. *This article analyzes the artistic-philosophical nature of Ahmad Azam’s story “The Man Who Lost His Shadow”, its symbolic images and the evolution of the hero's psyche. In the story, the author explored the tragedy of human alienation, spiritual crisis, and loss of image in society through the image of “shadow”. The article scientifically substantiates the psychological imagery of the work and its place in modern Uzbek prose. Also, through the internal experiences of the hero, the issue of preserving universal human values is brought to the fore.*

Key words: *shadow, story, psychology, hero, character, style.*

Kirish. Jahon adabiyotida hikoya qadim an’analarga ega. O‘tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo‘lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Yevropa adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga italyan yozuvchisi Bokachchoning “Dekameron” asari bilan katta hissa qo‘shgan. Asarda yetti qiz va uch yigitning o‘n kun davomida aytgan yuzta hikoyasi berilgan. Gi de Mopassan (fransuz), O‘Genri (amerikalik), A. P. Chexov (rus),

A.Qodiriy, Cho‘lpon (o‘zbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham ataladi.

O‘zbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar – Kultegin va To‘nyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Bobomiz Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining 5-maqolotidagi “Hotami Toy hikoyasi”, 20-maqolasidagi “Ul qul hikoyati”, “Sab’ai sayyor” dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. XVI asrda yaratilgan Poshshoxojaning “Gulzor” va “Miftoh ul-adl” asarlari o‘zbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos bo‘lgan.

Adabiyot tahlili va metodlar. Ahmad A‘zamning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi qahramoni o‘z xayollari ichida yuruvchi inson. Xayollari girdobiga shu qadar sho‘ng‘ib ketganki, real hayotdan uzilib qolgandek, go‘yo. Xayolparast insonlarning do‘sti kam bo‘ladi. Hikoya qahramonining ham do‘sti deyarli yo‘q. O‘z ichki kechinmalarini, ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni, hissiyotlarini bo‘lishgani, to‘kib solgani bir yupanch, bir do‘st topolmaydi.

Xayolan bunday insonni soyasi (do‘sti) yo‘q insonga qiyoslash mumkindir, ammo real hayotda-chi? Real hayotda soyasini yo‘qotgan odam ishonilishi mumkin bo‘lgan hodisa emas, lekin hikoya qahramoni hayotida bu chindan ro‘y beradi.

Endi nima bo‘larkin? Jamiyat,undagi odamlar bunday g‘ayritabiiy insonni qanday qabul qiladi? Ahmad A‘zam hikoyada shu savollarga javob izlaydi.

Ahmad A‘zam deyarli ko‘pchilik asarlarida romantik kinoyaviy unsurdan ustalik bilan foydalanadi.

Keltirilgan hikoyada ham bu unsurdan mahorat bilan qo‘llanilganiga amin bo‘lamiz. Yozuvchi badiiy to‘qimasiga kitobxonni chindan ham ishontiradi. Aslida esa bu hayotda ro‘y berishi mumkin bo‘lmagan hodisa bo‘ladi. Shunday ekan hikoya janriga to‘xtalsak: hikoya (ar. so‘z, ma’nosi: 1. Biror narsaning og‘zaki bayoni, tafsiloti; 2, Nasriy yo‘l bilan yozilgan kichikroq badiiy asar) — Izzat Sultonning asosli ta’kidlashicha, latifa mazmuniga kirgan voqeadan kattaroq, ammo povestga mazmun beruvchi voqeadan kichikroq sarguzashtni, ko‘pincha kishi hayotida bolgan bir epizodni tasvirlaydi. Darvoqe, u “... minglab bolaklarga bolingan romandir... kishilik taqdirining poyonsiz poemasidan bir epizod... shunday voqea va hodisani tanlab oladi va o‘zining tor ramkasida ifoda etadi” (V.G.Belinskiy). [1;222]

Muhokama. O‘zbek yozuvchisi, tarjimon va jurnalist Ahmad A’zamning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi tahlil qilinar ekan, bunda an’anaviy hikoya janridagi obrazlardan farqli ravishda bosh qahramon – hikoyachining ismi yoki laqabi

asar davomida keltirilmaydi. Chunki modernistik yo‘nalishda yozilgan adabiyot namunalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu holat (bosh qahramonning nomsiz qo‘llanilishi) odatiy deya baholanadi. Ism nisbiy tushuncha bo‘lganligi tufayli ham muallif ushbu hikoyada sodir bo‘layotgan voqealarni birgina inson uchun emas, balki umumiy tarzda barcha uchun tegishli ekanligini ta’kidlaydi. Dastavval, hikoya bosh qahramonning qachon va qanday holatda soyasi yo‘qolib qolganidan boshlanadi. Bu holat lag‘monni og‘ziga olib borgunga qadar (bir, ikki soniya) bo‘lgan vaqt davomida sodir bo‘lganini aytib, inson o‘z mazmunini unutishi uchun hatto daqiqalar ham ko‘plik qilishi, bu xuddi ko‘z ochib yumguncha vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tishini aytib o‘tadi. Shuningdek hikoya davomida qahramonning “Karavotga cho‘zilganini zahoti tubsiz quduqqa quladim” degan jumlalarini zohiriy sharhlasak, quduqning tubi qorong‘u bo‘lganligi tufayli uyquga ketganligiga ishora qilmoqda. Boshqa bir tomondan, inson tubsiz biron-bir chuqurlikka tushib ketganidan so‘ng, uni qutqarib olib bo‘lmaydi. Ya’ni u avvalgi turgan joyida qad rostlay olmaydi. Aynan bu hikoyada ham mana shu mazmundagi soyasini yo‘qotgan odam endi qayta soyasini topa olmasligiga belgi bo‘lib xizmat qiladi. Va bo‘layotgan bu voqealarning barchasiga kechasi bilan uxlamasdan kitob o‘qiganligini sabab deya ko‘rsatiladi. U o‘zida qandaydir o‘zgarish bo‘layotganini his qiladi, ammo aniq ayta olmaydi. Bu esa beixtiyor inson psixologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, hozir ham insonlarning ko‘nglida qandaydir notinchlik bo‘lsa, bu holatni o‘ziga nisbatan atrofdagilar tezroq fahmlaydilar. Shu kabi hikoya qahramoning soyasi yo‘qligini ko‘zoynakli bir yigit payqab qoladi. Chunki insonlar nafaqat nasriy asar davomida, balki kundalik turmush tarzida ham o‘z-o‘zini ko‘zdan kechirish, shaxsiga sirtdan baho berishdan ko‘ra, boshqa birovlarning xatolari yokida kamchiliklari zulmatdagi bir yog‘du kabi fikrini tortadi. Hikoyadagi mana bu jumlalar ham bu fikrni tasdiqlaydi, albatta: “Qarshimdan bir qiz kelayapti ekan, begonaga tikilish odobsizlik ekanini o‘ylab borayotgan bo‘lsam - da, yana bu qiz bola, ko‘zimni uzolmadim: — kichkina, ingichka, yuzi cho‘zinchoq, burgutcha burun, qirra iyagi katta, o‘ziga yarashimli hunuk, yupqa qora charm kamzulcha, qora yubka boshmoqqacha, oyoq jonivor ham sibizikday shaklli, qadam bosishida goh u yog‘idan, goh bu yog‘idan o‘ynalayotgan lozimi... lozim bo‘lib lozim, kolgotki bo‘lib kolgotki emas, qora yupqa matodan, to‘pikchacha; pochasiga qalampirnusxa, rangdor gul tikilgan, har xil tosh qadalg'an, yoziga tushgan tola sochini ko‘tarib qo‘yayotganda ko‘rdim: tirnoqlari ingichka, uzun-uzun o‘stirilgan, etdan tashqari qismi oqligicha qolgan, et usti qizg‘ish bo‘yalgan, qulog‘iga qaramabman, sirg‘alarini sochi yopgan shakilli, lekin xivich barmoqlarida ikki-uchtadan, toshi mayda, men farqiga bormayman, balki olmosdir, uzuk. Mo‘jazgina yirtqich! U menga bir qarab qo‘ydi - da, bir qadam chetlanib o‘tdi. Xuddi

men uni eb qo‘yadigan bir mahluqdek.” [3;158] Kishi shunchalik o‘ziga be’tiborki, qizning barcha jihatlariga e’tibor berib, o‘ziga esa qayrilib ham qaramaydi. Hikoya davomida inson qachon boshqa narsalarga ham e’tiborini qaratadi degan savolga javob berib, bunga yorqin misol qilib Barotni keltirib o‘tadi. “U uch yilcha oldin ichida sakkiz yuz qirq yetti so‘m bo‘lgan hamyon topib oladi va shundan buyon u yerga tikilib yurishni odat qiladi.” [3; 160] Bundan ko‘rinibdki, odamzodga qachonki salbiy yoki ijobiy narsa, voqea-hodisa ta’sir etsagina amalga oshirayotgan xatti-harakatiga e’tibor bilan yondashadi.

Yana bir masala shundan iboratki, kishi o‘zini yolg‘iz his eta boshlaganida u uchun yaqin kishisi deb bilgan insonlar haqida qayg‘ura boshlaydi. Ushbu hikoyadagi Mashhura singari. Mashhura bilan bog‘liq holda o‘zbek xalqi uchun milliy ibora darajasiga ko‘tarilgan bir birikma borki (Odamlar nima deydi), mana shu hadiksirash natijasida insonni taftini inson oladigan vaziyatda u o‘zini Mashhuradan yiroqda bo‘lishni afzal biladi. Hikoya so‘nggida esa Mashhura o‘zbek ayollariga xos ohangda “soyangiz bo‘lmasa, nima qilibdi? Mening soyam ikkalangizga ham yetadi” degan so‘zlari uni qanchalik qiyinliklarga chidamli ekanligini ko‘rsatib turadi.

Navbatdagi voqealar ishxonada bo‘lib o‘tadi. O‘sha manzildan boshlab hikoyaning asl mohiyati ochilib boradi. Ya’ni xalqning ustidan boshqarayotgan raykomning arzimagan, foydasiz ishlar bilan band bo‘lib, vaqtni o‘tkazishi ko‘rsatib beriladi. Bunda raykom soyasi yo‘q inson bilan shu vaqtgacha shug‘ullanmasdan endi, soyasi yo‘qolganidan boshlab e’tibor qaratishida ko‘rinadi. Qolaversa, xodimga nisbatan bepisandlik hikoyaning boshlanishida ham ishchi o‘z joyida bo‘lmaganidan xavotirlanib, qo‘ng‘iroq qilmaganida ham aks etadi.

Shu bilan birga, hikoyada Mirqosim aka tilidan aytilgan fikrlar bizni o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi, albatta: “Ko‘pdan beri shu bolada gumonim bor, buning idealogiyasi buzuq deb partkomimizga ham aytganman. Chunki g‘oyaviy yot, bema’ni adabiyotlarni ko‘p o‘qiydi. Aksariyati chet elliklarniki. Bir kuni xonasiga kirsam, stoli ustida Xeminguey, Folkner degan amerikaliklarning kitobi turibdi ekan”. [3;164] Yuqorida keltirilgan mana shu jumla haqiqatan ham hikoya qahramonining boshqa obrazlardan farqlovchi xususiyatga ekanligi, u faqatgina milliy adabiyot bilan cheklanib qolmasdan chet el adabiyoti bilan ham yaqindan tanishib borganligini ko‘rsatadi. Bu esa partiya a’zolarida uning ishidan ayb topishga bir shu’ladek xizmat qiladi.

Keyingi obraz bu Botir aka bo‘lib, u ishning ko‘zini biladigan hamda yetti o‘lchab bir kesadiganlar toifasidandir. U soyasi yo‘qolgan hamkasbi ham bir vaqtlar nohaq ayblanib, vafotidan so‘ng otlanganlar safida bo‘lib qolmasligi haqida qayg‘urib, soyasi yo‘qolib qolgani bilan yomon odamga aylanib qolmaganini

uqtiradi. O‘z fikrini yanada aniqlashtirib, bosh qahramonni yuragi toza ko‘nglida kiri yo‘q, oq, niyati yaxshi – yorug‘, shuning uchun undan yerga qora soya tushmaydi, – deya ta’riflaydi.

Majlis vaqtida bosh qahramonni Mirqosim aka gapirayotganda undan soya tushmayotgani e’tiborini jalb qiladi. Shuningdek, boshqalarning ham soyasi yo‘q edi. Chunki neonchiroqdan soya tushmaydi. Oftobga chiqqanlarida esa paydo bo‘lsa ham, lekin xonada hammasining soyasi yo‘q. Ushbu holat orqali biz ikkiyuzlamachiligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo bosh qahramon xonada bo‘ladimi yoki quyoshning tagida bo‘ladimi, unda soya paydo bo‘lmaydi. Bu uning har doim ham bir xil ko‘rinishda ekanligini ko‘rsatadi. Lekin, boshqa partiyadagilar esa bundan mustasno. Ularning fikricha, agar soyasini yo‘qotgan odamning ham soyasi topilmasa, majburlab yopishtirib qurilishi aytiladi. Ramziy ma’noda bo‘lsa, kishi partiyada ishlay olishi uchun boshqa insonlar (ikkiyuzlamachilik) qatorida bo‘lishi ta’kidlanadi.

Natijalar. Hikoya yakuniga yetib borar ekan, dastlab shov-shuvga aylanib ulgurgan yo‘qolgan soya voqeasi insonlar uchun oddiy ertak kabi bo‘lib qoladi. Buni biz hozirda kunda ham uchratishimiz mumkin bo‘ladi, albatta. Masalan, bir yosh olim ajoyib ixtiro qilsa, dastlab anchagina tanqid ostida qoladi. Keyin barcha kasb vakillari, oddiy aholining o‘zaro suhbatlarida ana shu ixtirochi haqidagi gap-so‘zlar odatiy holga aylanadi. Vaqt o‘tib esa bu voqealarning barchasi unutilib(soyasi yo‘qotgan odam kabi) hamma odatiy turmush tarzida hayot kechiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ahmad A’zamning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasidagi voqealar ramziy timsollar orqali ifodalangan bo‘lib, kichik nasriy asar tarkibida ulkan falsafiy g‘oyani yetkazib berishga xizmat qilgan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, ma’lum bir kasb vakillarining befoyda amallar bilan mashg‘ul bo‘lishi, hech kimga naf keltirmaydigan vazifalarni o‘zlari uchun amal qilib olganini muallif kinoya ostiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. -264 b.
2. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: Yangi nashr, 2010.
3. Ahmad A’zam. Hali hayot bor….– Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
4. https://share.google/eM98bD1zDKwMdtafT
5. wikipedia.uz